

Ilmiy va madaniy hamkorlik yo'lida

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ilm-fanni rivojlantirishga, xalqaro hamjamiyat bilan bu borada hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, yutuq va kamchiliklar haqida o'zaro muloqot maydonini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimizning bir qator farmon, qarorlari ham e'lon qilingani bu yo'nalishdagi huquqiy asosni ham yanada mustahkamladi.

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida Turkiya Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Olgan Bekar va institut olimlari bilan ikki tomonlama ilmiy, madaniy hamkorlik masalalari bo'yicha uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda Institut direktori N.Mahmudov Institutning ilmiy faoliyati, amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, nashr etilayotgan ilmiy risolalar, olimlar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy loyihamar xususida ma'lumot berib o'tdi. Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatimizda jamiyatda o'zbek tilining nufuzini oshirish, obro'-e'tiborini mustahkamlash borasida qabul qilingan bir qator qonun hujjatlari va ularning ijrosi borasida Institut tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida alohida ta'kidlab o'tdi.

Ayniqsa, madaniyati o'zaro mushtarak bo'lgan xalqlarni doimi bir-birining xalq ijodiyoti qiziqtirib kelgan. Shu sabab suhabat davomida professor M.Jo'rayevning Institut folklor bo'limida amalga oshirilayotgan ishlar, xususun, "O'zbek xalq ozaki ijodi yodgorliklari"ning 100 jiddigi tayyorlanayotganligi haqida ma'lumotlari barchani birdekk sevintirdi.

Shuningdek, suhabat davomida filologiya fanlari nomzodi E.Ochilov "O'zbek adabiyoti durdonalari" 100 jiddigi nashrga tayyorlanayotgani, filologiya fanlari doktori Yo.Odilov esa sotsiolingvistika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, mazkur sohaning istiqboliy yo'nalishlari borasida yosh tadqiqotchilarning izlanishlari haqida gapirib o'tdi.

Institutda ilmiy xodimlari, ayniqsa, yosh olimlar orasida xalqaro miqyosda o'tkazilib kelinayotgan turli xil ilmiy konferensiyalarda ishtirok etayotgan, amaliyat uchun chet elga borayotgan va xalqaro mukofotlarni qo'lga kiritayotganlar safi kengayib bormoqda. Shunday olimlardan biri G'.Ismoilov ham Turkiya tomonidan tashkil etilgan qurultoya ishtirok etgani va bu ilmiy safari davomida Anqara universiteti tilshunos olimlari bilan hamkorlik qilish bo'yicha qilgan suhbatdan katta taassurotlar bilan qaytgani haqida so'zladi Shuningdek, olim keljakda Turkiya olimlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha o'z takliflarini berdi.

Institut tomonidan ayniqsa, Turkiya davlati bilan adabiy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgani ta'kidlandi. Institutning direktor o'rinosi M.Otajaonova Turkiya davlati bilan adabiy aloqalar borasida amalga oshirilayotgan ishlar hakida ma'lumot berar ekan, bunda olimlar, ayniqsa doktorantlarning akademik almashinuvini yo'lga qo'yish muhim ekanligini ta'kidladi.

Turkiya davlatining elchisi bildirilgan taklif va mulohazalar borasida o'z fikrlarini bildirar ekan, Turkiya-O'zbekiston olimlari orasida ilmiy aloqalar juda yaxshi yo'lga qo'yilgani, bu ilmiy soha uchun muhimligi, shuningdek, ilmiy tashkilotlar o'ttasida memorandum (shartnoma)lar asosida hamkorlik istiqbollarini aniq belgilab olish va izchil amalga oshirish lozimligini ta'kidladi.



Samimiyl kechgan ikki tomonlama suhbat oxirida Turkiya elchisi tomonidan Institut kutubxonasida 10 jildli "Büyük Türkçe Sözlük" lug'atini taqdim etildi.

Institut tomonidan ham til, adabiyot va folklor yo'nalishida chop etilgan ilmiy risolalar, kitoblar elchi janoblariga sovg'a qilindi.